



Dastur Urganch Davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan. 2023 yil 03.07dagi № 10 - sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, PhD.,  
dots. U. Xo‘jamuratov  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o‘qituvchisi:  
X. Yunusxojaev**

**Taqrizchilar:**

**UrDU Tarix kafedrasini dotsenti M.Matyakubova  
UrDU Tarix kafedrasini dotsenti X.Matyaqubov**

# **O‘zbekiston tarixi**

## **KIRISH**

Ijodiy (kasbiy) imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari hamda umumta‘lim maktablarining O‘zbekiston tarixi fanidan tuzilib abiturentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

### **Fanning maqsad va vazifalari**

Dastur ko‘zi o‘jiz abiturentlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Davlat ta‘lim standartlari asosida tuzilgan. Xalqimizning eng qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘lini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy hayotini holisona o‘rganish, mamlakatimizni demokratlashtirish va iqtisodiyotini bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o‘rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu dastur ko‘zi o‘jiz abituriyentlar uchun mo‘ljallangan. Ushbu dastur bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlar Tarix fanlari bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

### **O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha mavzular**

Imtihon topshiruvchi abituriyentlar quyidagi tushunchalarga ega bo‘lishi kerak: O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, manba va asoslari. O‘rta Osiyo ibtidoiy tarixining davri va bosqichlari. Ibtidoiy tarixni davrlashtirish. Ibtidoiy jamoa davrining tabiiy shart-sharoitlari va ibtidoiy odamlarning tarqalishi. O‘rta Osiyoning qadimgi must‘e davri odamlari va ularning mehnat faoliyati. O‘rta Osiyo hozirgi qiyofadagi odamlarning shakllanishi va antropogenez jarayoni tugallanishi davrida. Mezolit va neolit davrida O‘rta Osiyo. Eneolit, bronza va ilk temir davrida O‘rta Osiyo. O‘rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalari. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So‘g‘diyona davlatlari. Ahamoniylar davrida O‘rta Osiyo. Makedoniyalik Iskandarning O‘rta Osiyoga yurishlari va uning oqibatlari. Salavkiylar davrida O‘rta Osiyo. Yunon-Baqtriya podsholigi. O‘rta Osiyoda antik davlatlarning tashkil topishi. Qang‘, Dovon va Xorazm davlatlari. Kushon davlati.

Ilk o‘rta asrlarda er egaligi munosabatlarining shakllanishi va davlatchilik. Xioniyalar, Kidariylar, Eftaliylar davlati. Turk xoqonligi. G‘arbiy turk xoqonligi. Xo‘jalik va ijtimoiy hayot. Ilk o‘rta asrlar mahalliy voha hokimliklari. SHaharlarning shakllanishi. Madaniyat va ma‘rifiy hayot. Movarounnahrning Arab xalifaligi tomonidan fath etilishi va xalq ozodlik harakatlari. Islom dini va uning tarqalishi.

Movarounnahr va Xurosonning Arab xalifaligidan ajralishi va mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar davlati. Somoniylar davlati. Qoraxoniylar davlati. G‘aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari. Xorazmda Anushtakinlar davlatining tashkil topishi. IX-XIII asrlarda Movarounnahr va Xorazmdagi madaniy hayot. Uyg‘onish (Renessans) davri rivoji. Me‘morchilik, san‘at, musiqa. Islom dini va tasavvuf ta‘limoti. Etnik jarayonlar va o‘zbek xalqining tarkib topishi.

Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Xoramshohlar davlatining siyosiy hayoti. Mo‘g‘ullar istilosi. Jaloliddin Manguberdi. CHig‘atoy ulusining tashkil topishi va uning siyosiy hayoti. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. XVI asrning birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. Amir

Temur davlatining tashkil topishi. Amir Temurva uning jahon tarixida tutgan o'rnini. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson. Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy hayot. Ilm-fan ravnaqi. Me'morchilik va amaliy san'at. Kitobat, tasviriy san'at, musiqa va adabiyot. SHayboniylar davrida Movarounnahr. SHayboniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvoli. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi. Ashtarxoniylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy hayot. XVI – XIX asrning birinchi yarmida Qoraqalpoqlar.

XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi. Amirlikda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Qo'qon xonligining tashkil topishi va undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Xiva xonligining tashkil topishi va rivojlanishi. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida madaniy hayot.

Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklarga faol harbiy harakatlarining boshlanishi va ekspansiyasi sabablari. O'rta Osiyo masalasida ingliz – rus raqobatining keskinlashuvi sabablari va Rossiyaning mintaqadagi siyosatiga munosabat. O'rta Osiyo xonliklarini chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilarga qarshi xalq harakatlari. CHor Rossiyasining Turkistondagi mustamlaka ma'muriy boshqaruv tizimi va milliy siyosati. 1873-1876 yillardagi Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari. XIX asrning 80-90 yillarida Turkiston o'lkasida xalq harakatlari. Po'latxon qo'zg'oloni. 1898 yil Andijon qo'zg'oloni.

XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi (1900-1917 yillar). XX asr boshlarida chor Rossiyasining Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosati. Turkiston Rossiya imperiyasining xom ashyo manbai. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Mustamlakachilik sharoitida Turkiston o'lkasida madaniy hayot. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati va siyosiy harakatlar faoliyati. Birinchi Jahon urushining Turkiston o'lkasiga ta'siri. 1916 yil milliy-ozodlik kurashi. 1917 yil fevral inqilobi va Oktyabr to'ntarishi.

Rossiyada 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi, podsho hokimiyatining ag'darilishi, uning o'lkaga ta'siri. «*SHo'roi islomiya*», «*SHo'roi ulamo*» tashkilotlarining tuzilishi va ularning faoliyati. Toshkent hamda o'lkaning boshqa shaharlarida sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi.

O'lka musulmonlarining Qo'qonda chaqirilgan favqulodda IV qurultoyi. Turkiston muxtoriyati. Bol'sheviklar hokimiyatining mahalliy xalq irodasiga qarshi chiqishi va katta qo'shin bilan Qo'qonga hujum qilishi. Qo'qon fojeasi. Turkiston muxtor hukumatining ag'darilishi. Turkiston ASSRning tuzilishi. Harbiy kommunizm siyosati. Farg'ona vodiysida sovet xokimiyatiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. «YOsh xivaliklar» tashkiloti. Xiva xonligining ag'darilishi. «Xorazm Xalq Sovet Respublikasi»ning tuzilishi.

Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy ahvol. «YOsh buxoroliklar» tashkiloti. Frunze qo'mondonligidagi qizil armiyaning Buxoroga hujumi. Buxoro shahrining vayron qilinishi. «*Buxoro Xalq Sovet Respublikasi*»ning tashkil etilishi. 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat. YAngi iqtisodiy siyosat. 1920-1921 yillardagi er-suv islohoti. "Qo'shchi" uyushmasi. O'rta Osiyoda milliy - davlat chegaralanishining o'tkazilishi. O'zbekiston SSR tashkil topishi. O'zbekiston SSRning SSSR tarkibiga kiritilishi. Qoraqalpog'istonning ijtimoiy - siyosiy ahvoli. Qoraqalpog'iston muxtor jumhuriyatining tashkil topishi. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va amaliyoti.

Agrar siyosat. 1925-1929 yillarda o'tkazilgan er-suv islohoti. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati, uning og'ir oqibatlari. O'zbekistonda 20-30 yillardagi madaniy hayot.

Xalq maorifi. *Toshkentda universitetning hamda boshqa oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining ochilishi. «Hujum» harakati. «Savodsizlikni tugatish» uchun kurash.*

SSSRda ma'muriy-buyruqbozlik, totalitar tuzumning qaror topishi. YAkka hokimiyatchilikning kuchayishi. Diniy tashkilotlar va ruhoniylarning ta'qib etilishi. *Inson huquqlarining poymol etilishi va uning fojiali oqibatlari.* Ijtimoiy adolat qoidalarining buzilishi. Kadrlar siyosatidagi nuqsonlar.

Ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablari. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining fashizmga qarshi kurashga safarbar etilishi. Respublikada xo'jalik va ijtimoiy hayotning harbiy izga solinishi. Mehnat safarbarligi. Frontga umumxalq yordami.

SSSRning g'arbiy viloyatlaridan sanoat korxonalari, o'quv va ilm maskanlari, madaniyat muassasalarining ko'chirib keltirilishi, joylashtirilishi. O'zbek xalqining bag'rikenglik ma'naviyati yuksakligining namoyon bo'lishi. Urush yillarida O'zbekiston sanoati. Transport va aloqa tarmoqlarining faoliyati. Urush yillarida fan va madaniyat. Adabiyot, tasviriy san'at. Teatr va musiqa san'ati.

O'zbekiston jangchilarining frontda ko'rsatgan jasoratlari. Urush yillarida qrim-tatarlari, mesxeti turklari, chechenlar, qorachoylar va boshqa xalqlarning o'z vatanidan badarg'a qilinishi, O'zbekistonga olib kelib joylashtirilishi. O'zbeklarning ularga ko'rsatgan mehr-muruvvati. Fashistlar Germaniyasi va YAponiyaning taslim bo'lishi. Urushning tamom bo'lishi. Fashizmi tor-mor etishda O'zbekistonning munosib o'rni. Urushning yakunlari va saboqlari. O'zbekistonda «Xotira va qadrlash» kuni, uning mohiyati va ahamiyati. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy hayoti. Sanoat va transport. YAngi sanoat shaharlarining vujudga kelishi. Respublikaning agrar xo'jaligi. Irrigasiya-meliorasiya ishlarining kengayishi. Qo'riq va bo'z erlarining o'zlashtirilishi.

O'zbekistonda 1950-1970-yillarda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, ularning samarasizligi. Iqtisodiyotning bir tomonlama, xom ashyo etishtirish tomon yo'naltirilishi. Paxta yakka hokimligining oqibatlari, ekologik xolatning buzilishi. Orol fojiasi. 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti. Ilm-fan. Adabiyot va san'at. Ta'lim-tarbiya va turmush. Oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash.

*Ma'naviy hayotda mafkuraviy cheklashlar, buyruqbozlikning kuchayishi.* Xalqni milliy qadriyatlar, ma'naviy merosdan begonalashtirish, o'zbek tilini qo'llashda kamsitish hollari. 80-yillarning o'rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi.

«Qayta qurish» konsepsiyasi va uning cheklanganligi. «Qayta qurish» yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» va ularning salbiy oqibatlari.

*O'zbekistonning eng yangi tarixi.* O'zbekiston mustaqilligi uchun qo'yilgan birinchi qadamlar. O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi qonunning qabul qilinishi.

1990 yil fevralida O'zbekiston Oliy Kengashiga o'tkazilgan saylovlar. Mustaqillik Deklarasiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati.

1991 yil avgust voqealari, markaz davlatchiligi tangligi va SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

1991 yil 31 avgust O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risidagi masalaning Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasida muhokama qilinishi, sessiyada qabul qilingan Bayonotda *O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.*

1991 yil 29 dekabrda referendum va umumxalq tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ma'qullanishi.

Umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining saylanishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi.

Siyosiy islohotlar. Eski davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining barham topishi. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining barpo etilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining shakllanishi. O'zbekiston ko'ppartiyaviylik tizimiga asos solinishi, dastlabki asosiy partiyalarning shakllanishi.

*Mustaqillik sharoitida O'zbekiston parlamenti.* Oliy Majlisning ko'ppartiyaviylik asosida shakllanishi. Oliy Majlisning tuzilishi, vazifalari va faoliyati. Ikki palatali parlament tuzish to'g'risidagi referendum. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga kiritilgan o'zgartirishlar. Siyosiy partiyalar. Jamiyatda ko'ppartiyaviylikning qaror topishi.

Ommaviy axborot vositalari. Axborot tizimini erkinlashtirish. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni va ahamiyati. O'zbekistonda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi konsepsiyasi va uning tarixiy ahamiyati.

Davlat mulkini xususiylashtirish mexanizmining yaratilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Mustaqillik sharoitida iqtisodiyotda amalga oshirilgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar.

Agrar islohotlar. Dehqon-fermer xo'jaliklari. Qishloq xo'jalik infratuzilmasining shakllantirilishi. Don mustaqilligiga erishilishi. Soliq siyosati. Kuchli ijtimoiy siyosat.

Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot. Ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi. Navro'z, Ro'za va Qurbon xayitlarining bayramona nishonlanishi. Respublikada davlat va dinning o'zaro munosabati, uning asosiy tamoyillari.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. Unda mamlakatni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, tarmoqlari va hududlarini yanada kompleks rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini va mintaqalarning eksport salohiyatini rivojlantirish, xususiy mulk va tadbirkorlikning roli va ahamiyatini kuchaytirish, aholining daromadlari va turmush darjasini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilanishi. Mustaqillik yillari zamonaviy yo'l-transport infratuzilmasini shakllantirish, dunyo bozorlariga yangi yo'llarni ochish chet mamlakatlar bilan bog'laydigan ilg'or transport kommunikatsiya tarmoqlarini yaratish ishlarini amalga oshirilishi. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturi va unda belgilangan vazifalar. "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturida belgilangan vazifalar.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda infratuzilmaning tutgan o'rni. XXI asr boshida O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi vazifalar. O'zbekistonda ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalaridagi amalga oshirilgan islohotlar. Respublikada transport-kommunikatsiya va infratuzilmani rivojlantirishning ahamiyati. Faol investitsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari. Respublikada erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak!" nomli ma'ruzasida 2017 yilga

mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilab olinishi.

O'zbekistonda yoshlar siyosati. O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlarning nazariy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmuni, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash vazifalarining belgilanishi. Mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim tizimi sifati va samaradorligini tubdan oshirish siyosati.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini SH.M.Mirziyoevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar Strategiyasidagi belgilangan vazifalar hamda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan g'oyalar.

O'zbekistonda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi ustuvor vazifalarning belgilanishi. O'zbekiston rahbarining ahil qo'shnicilik muhitini – "farovonlik kamarini" shakllantirish borasidagi tashabbusi. O'zbekistonning MDH doirasida erkin savdo zonasining to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash yo'lidagi harakatlari. O'zbekiston-Rossiya munosabatlarini yanada kengaytirish va sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan harakatlar. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yangicha hamkorlikni amalga oshirish siyosati. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi, hayotga joriy etilish. Mustaqillik yillari amalga oshirilgan islohotlarning milliy davlatchilikni tiklash va mustahkamlash, davlatimiz chegaralarini dahlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquqlari va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar:

- Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari;
- Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha mamlakat yoshlariga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari o'z ichiga qamrab olgan 5 ta muhim tashabbusni ilgari surilishi va uning ijrosining natijalari.

## **IJODIY ( KASBIY) IMTIXON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

Ko‘zi oqizlar uchun ijodiy imtixon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko‘zi oqizlar uchun kirish imtixonlari og‘zaki tarzda o‘tkaziladi va har bir imtixon biletiga ikkitadan nazariy savol kiritiladi.

**Ijodiy imtixonni baholashda quyidagi me‘zonlardan kelib chiqiladi:**

### **1. Abiturientlarning javobi 5 (a’lo)ga baholanishi uchun:**

- Abiturient tarixning qadimgi davridan to hozirgi kun tarixigacha bo‘lgan bosqichni mukammal bilishi lozim;
- Har bir tarixiy voqealar aniq tarixiy dalillarga asoslanishi kerak .
- Javoblarda tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan jo‘g‘rofiy hudud ham aniq ifodalanishi zarur.
- Javoblarda keraksiz har xil gaplardan ko‘ra, ko‘proq aniq faktlar hisobga olinadi.
- Mustaqillik davri tarixiga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, madaniyatiga, iqtisodiga, huquqiga tegishli savollarga yanada aniqroq javob berilishi kerak.
- Qo‘shimcha savollarga ham to‘liq va to‘g‘ri javob berish lozim.

### **2. Abiturientlarning javobi 4 (yaxshi)ga baholanishi uchun:**

- Tarixning hamma bosqichlari bo‘yicha umumiy bilimga ega bo‘lishi va uni dalil izohlay olishi lozim;
- Tarixni arxeologik va etnografik materiallar bilan qo‘shib asoslay olishi kerak;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlarini aniq tushuntira olishi lozim;
- Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining yangi tarixi (1991-2022 yillar) bilan bog‘liq voqealarga aniq javob berishi kerak.
- Biror-bir tarixiy davrga tegishli berilgan qo‘shimcha savolga aniq va puxta javob berilishi lozim.

### **3. Abiturientlarning javobi 3 (o‘rta)ga baholanishi uchun:**

- Abiturient belgilangan savollarga maktab tarix fani dasturi bo‘yicha umumiy tushunchaga ega bo‘lib, javoblarni har tomonlama asoslanishga harakat qilishi kerak;
- Javoblarda har bir tarixiy davr fakt, manbalar, arxeologik materiallarga asoslanishi lozim;
- Javob berayotganda bo‘lib o‘tgan har bir tarixiy voqealarga aniqlik kiritilishi kerak, umumiy gaplar yoki taxminiy javoblardan uzoqroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

### **4. Abiturientning javobi quyidagi hollarda 2 (qoniqarsiz)ga baholanadi:**

- Abiturient tarixiy taraqqiyotning qadimgi davridan to hozirgi kunimizgacha bo‘lgan tariximizni asoslay olmasa;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlaridan, davlatchilik tarixidan etarlicha ma‘lumotga ega bo‘lmasa;
- Tarixiy voqealarning aniqligiga ishonchsizlik bilan javob bersa;
- Mustaqil O‘zbekiston respublikasining yangi tarixiga tegishli tarixiy voqealarni ifoda etuvchi javoblari maqsadga muvofiq deb topilmasa;
- Tarixiy mavzular bo‘yicha berilgan qo‘shimcha savollarga mujmallik va noaniqlik bilan javob bersa.

## **Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Imtixon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o‘quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Tarix fani bo‘yicha imtixon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a‘zodan kam bo‘lmagan holda tashkil etiladi.

Tarix yoʻnalishi boʻyicha imtihon natijalaridan norozi abituriენტlarning murojaatlarini koʻrib chiqish boʻyicha apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

**Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Apellyatsiya komissiyasi imtihon komissiyasi faoliyatini yoʻlga qoʻyilishi bilan bir paytda 2023-2024 oʻquv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abiturient imtihon natijalari eʻlon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojat etishi mumkin. Aks holda koʻrsatilgan muddatdan oʻtib qilingan murojat inobatga olinmaydi.

apellyatsiya komissiyasi abituriენტlar tomonidan bildirilgan ogʻzaki va yozma murojatlarga javob beradi.

Abituriენტ tomonidan bildirilgan murojaatni koʻrib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni maʼlum qiladi.

**Qabul komissiyasi masʼul kotibi**

**E.Xudoynazarov**